

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XURRAMOV RUSTAM SAYFIDDINOVICH

**ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING EVRISTIK QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISHDA ETNOPELAGOGIKADAN FOYDALANISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) (pedagogika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xurramov Rustam Sayfiddinovich

Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda
etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....5

Хуррамов Рустам Сайфиддинович

Совершенствование методики использования этнопедагогике в развитии
эвристических способностей учащихся на уроках родного языка.....19

Khurramov Rustam Sayfiddinovich

Improving the methods of using ethnopedagogy in the development of students’
heuristic abilities in native language classes.....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....41

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XURRAMOV RUSTAM SAYFIDDINOVICH

**ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING EVRISTIK QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISHDA ETNOPELAGOGIKADAN FOYDALANISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) (pedagogika fanlari)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Termiz – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy, ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/Ped3209 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev G‘ofir Hasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: +99876221-74-55; faks: +99876221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: +99876221 221-74-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.X.Shomirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d.(DSc), professor

A.B.Narbayev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d.(PhD), dotsent

U.B.Abdiyev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda til va madaniyatlarni o'rganish, shuningdek, etnik guruhlarining madaniy xilma-xilligini ta'lim tizimiga kiritish hamda o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. AQSHning "Culturally Responsive Teaching"¹ dasturi o'quvchilarning madaniy kelib chiqishini hisobga olgan holda ta'lim berish metodikasini takomillashtirishga va ularning evristik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ko'p millatli mamlakatlarda etnopedagogika elementlaridan foydalanish va uni rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu maqsadda, ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda turli xil metodikalardan foydalanish, pedagogik va psixologik shart sharoitlarni o'rganish, til o'qitish bo'yicha pragmatik o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida foydalanish, etnopedagogikaning zamonaviy talablar asosida o'quv adabiyotlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot ishlari ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimizda ham o'zbek tilining ona tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish, yangi zamonaviy o'qitish metodikalarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikada shakllangan tilimizga bo'lgan yangicha siyosat til ta'limiga bo'lgan zarur talablarni qo'yimoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"²ligi ona tili ta'limi oldiga, xususan, o'qituvchilar tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish oldiga ham dolzarb vazifalar qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi 419-son "Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risida", 2020-yil 11-martdagi 139-son "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar

¹Gay, G. Culturally responsive teaching: Theory, research, and practice (2nd ed.). Teachers College Press. (2010).

²uza.uz. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019-yil 21-oktabr.

rivojlanishining “I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda keyingi yillarda ona tili o‘qitish metodikasiga doir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmqda. Jumladan, Sh.Yusupova va N.Yuldasheva tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish masalalari tadqiq qilingan. A.G‘ulomov, M.Saidov va N.Alovuddinovalar esa ona tili o‘qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Tadqiqotchi A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G‘aniyev, M.Saidov A.Hamroyev, K.Mavlonovalar ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish imkoniyatlari, o‘zining ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchining bilish faolligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. H.Suyunovning adabiyot o‘qitishda savol va topshiriqlar ustida ishlashga o‘rgatish usullariga doir tadqiqoti adabiy ta’lim, shuningdek, ona tili ta’limi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan M.Maxmutov, T.I.Shamova, A.P.Zankov, M.N.Skatkin, A.M.Novikov, P.P.Blonskiy, N.D.Nikandrov, I.Y.Lerner, A.P.Yershova va boshqalar izlanishlarida loyihaviy ta’lim asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish muammolari tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlardan M.A.Amutio, A.Smith, A.Yelanda, F.F.Bahamonde, R.R.Sears, R.O.Descartes kabi olimlar tomonidan tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasiga doir tadqiqot ishlari olib borilgan.

Soha olimlari tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning pedagogik va metodik jihatlari yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari” (2022-2024-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ona tili darslarida o‘quvchilarining evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ona tili darslarida o‘quvchilarining evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning nazariy- metodologik imkoniyatlari aniqlash;

ona tili darslarida etnopedagogikadan foydalanish o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish qonuniyatlari asosida o‘qitish metodikasini mazmunan takomillashtirish;

ona tili darslarida maqsadga yo'naltirilgan savollar va mashqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning integrativ modelini takomillashtirish;

ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishga yo'naltirilgan metodikaning samaradorlik darajasini aniqlash va amaliyotga tatbiq etishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlanib, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlaridagi 9 ta umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 1176 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning shakl, vosita, usul, metodlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir tarixiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ilg'or tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pedagog, psixolog, buyuk allomalarning didaktik qarashlari asosida xulosalar chiqarish, dalillar keltirish, asoslash orqali o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning nazariy-metodologik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

ona tili darslarida etnopedagogikadan foydalanishga qaratilgan ishlarni tashkil qilish asosida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish, taxmin qilish, asoslov va sabablar ustida fikr yuritish, hozirjavoblik, ishchanlik, faollik qonuniyatlari mantiqiy ketma-ketlik va izchillikda o'qitish metodikasi mazmunan takomillashtirilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning integrativ modeli ta'lim motivatsiyasi va o'qitishni nazorat qilish diagnostikasining imkoniyatlari hamda didaktik shart-sharoitlari aniq va ravshan, tanqidiy, tizimli mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollar va og'zaki mashqlardan foydalanishga asoslangan holda takomillashtirilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasining samaradorlik darajasi aniqlanib, konstruksiyalash va modellashtirish tajribalariga ustuvorlik berish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar uchun evristik mashqlar to'plami” nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan;

“mantiqiy tafakkur”, “evristik faollik” va “boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati mualliflik yondashuvi asosida pedagogik talqin etilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishga doir integrallashgan dars ishlanmalari ishlab chiqilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning interfaol dasturiy vositalari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashilganligi hamda respublika va chet el olimlarining, pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish muammolari, ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish, ona tili darslarida o'rganiladigan matnlar bilan bog'liq ta'lim mazmunining mavjud holati tahlilga tortilganligi, ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilganligi, o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarini lug'at zaxirasidagi so'zlar asosida taqqoslash, o'quv topshiriqlarini bajarishda so'zlarning muvofiqligini tanlash va amalda samarali qo'llash malakasini egallash masalalari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar va amaliy tavsiyalardan ona tili darsliklarini yaratishda, ona tili fani materiallarini integratsiyalash asosida til ta'limi samaradorligini oshirishda, ta'lim tizimida darslik va qo'llanmalar yaratishda, malaka oshirish kurslarida ma'ruzalar o'qishda, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida foydalanishlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

pedagog, psixolog, buyuk allomalarning didaktik qarashlari asosida xulosalar chiqarish, dalillar keltirish, asoslash orqali o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning nazariy-metodologik imkoniyatlarini aniqlashtirishga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017-2020) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasining "Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning metodik imkoniyatlari" qismini bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 4-sentabrdagi 351/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning metodik imkoniyatlari kengaygan;

ona tili darslarida etnopedagogikadan foydalanishga qaratilgan ishlarni tashkil qilish asosida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish taxmin qilish, asoslov

va sabablar ustida fikr yuritish, hozirjavoblik, ishchanlik, faollik qonuniyatlari mantiqiy ketma-ketlik va izchillikda o'qitish metodikasi mazmunan takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar "Boshlang'ish ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil 11-oktabrdagi 366-PO'-son buyrug'i, 366-PO'023-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, ona tili darslarida o'quvshilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish yo'llari orqali o'quvshilarning tayansh kompetensiyalari takomillashtirilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning integrativ modeli ta'lim motivatsiyasi va o'qitishni nazorat qilish diagnostikasining imkoniyatlarini hamda didaktik shart-sharoitlarini aniq va ravshan, tanqidiy, tizimli mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollar va og'zaki mashqlardan foydalanishga oid nazariyalardan Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bilimdon-intellektual o'yini", "Top-top intellektual o'yin", "Obod mahalla", "Yoshlar vaqti", "Ko'z o'ngimizda", "Taraqqiyot va farovonlik sari", "Inson qadri" ko'rsatuv va radioeshittirishlarda foydalanilgan (Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 2-oktabrdagi 01-02/929-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada o'quvchilarning televidenie orqali ona tili darslarida etnopedagogikadan foydalanish ko'nikmasi rivojlantirilgan;

ona tili darslarida o'quvshilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasining samaradorlik darajasi aniqlanib, konstruksiyalash va modellashtirish tajribalariga ustuvorlik berish asosida amaliyotga tatbiq etishga doir amaliy tavsiyalardan "Boshlang'ish sinf o'quvshilarining evristik qobiliyatini rivojlantirish" nomli metodik qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgasha va maktab ta'limi vazirligi 2024-yil 1-noyabr 03-33-3178-son ma'lumotnomasi). Natijada, ona tili darslarida o'quvshilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishga doir metodik tavsiyalardan foydalanish o'qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 37 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 18 ta maqola, shundan 13 tasi respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 130 bet matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma‘lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o‘tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish – metodik muammo sifatida, ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va ona tili darslarida etnopedagogikadan foydalanishning mavjud holati asoslangan.


Zamonaviy pedagogika yosh avlodni tarbiyalash jarayonida turli texnikalar va texnologiyalarni qo‘llaydi. Bu ta‘lim samaradorligini oshiradi. Ajdodlarimiz uzoq yillar davomida bolalarni tarbiyalashning asosiy qarashlari, g‘oyalari va yo‘nalishlarini ishlab chiqishgan. Etnopedagogika fani yosh avlodga o‘z qadr-qimmatini o‘rgatadigan yo‘nalishdir. Shu sababli, bu yondashuv esa eng qadimgi davrdan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan davrda madaniy qadriyatlar haqida bilishga imkon beradi.

Etnopedagogika – ma‘lum bir millatning tarixiy tajribasini qo‘llaydigan pedagogika fanining bir bo‘limi. U o‘tgan avlodlarning yosh avlodni tarbiyalash muammolari bo‘yicha fikrlarini o‘rganmoqda. Shu bilan birga, oila, hayot, millat va jamiyatga katta e‘tibor qaratmoqda. Etnopedagogika o‘z tarkibida xalq ijodkorligi namunalarini jamlaydi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik fikrlashini rivojlantirishda og‘zaki mashqlar ham muhim o‘rin egallaydi. An’anaviy darslarda o‘qituvchilar o‘quvchilarga yozma mashqlar bajartirishga alohida e‘tibor qaratganlar. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini shakllantirish abstrakt-obrazli tafakkurini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchilar maxsus tanlangan og‘zaki mashqlar tizimidan foydalanishlari lozim. Og‘zaki mashqlar o‘quvchilarga hodisaning mohiyatini tezda ko‘rish, tushunish va uning bajarilishini to‘g‘ri izohlay olish imkoniyatini beradi. “Yozma mashqlarni bajarish davomida esa, ona tili darslarida o‘quvchilar voqea hodisaning mohiyatini anglab olishga qiynaladilar”. Og‘zaki mashqlarning xarakteri turli-tuman bo‘lishi mumkin: obyektни berilgan belgilariga ko‘ra topib olish bo‘yicha mashqlar, obyektning o‘xshashligi va farqlarini topishga doir mashqlar yoki qonuniyatlarni aniqlash, tasniflashga doir mashqlar va h.k. Og‘zaki mashqlar sinfdagi har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga imkoniyat yaratadi. O‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib, uning aqliy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olib, taklif etilgan tabaqalashgan og‘zaki mashqlar tizimi o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga sharoit yaratadi. Demak, og‘zaki mashqlarni o‘qitishda

zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash vositasi hamda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, o'quv jarayoni mahsuldorligini oshirish borasida katta imkoniyatlarga ega.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy izlanishlar, o'qitishning nazariy asoslari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holda muvaffaqiyatli sanaladi. Biroq o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari va ular o'rtasidagi aloqalar takomillashib boraveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.



1-rasm. Ijodiy faoliyat tuzilishi

Dissertatsiyada ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishga o'rgatish jarayonida ustuvor prinsiplar ajratib ko'rsatilgan: fikrlashning tasdiqni aniq shakllantirish, xayol yuritish va dalillar zanjirini tuza bilish layoqatiga ega ekanligi, uning mantiq bilan o'zaro aloqadorligi; fikr yuritishning faqatgina insonga xosligi; shaxsning o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatlariga egaligi; shaxsning fikrlash faoliyatini namoyon qilish imkoniyatining mavjudligi; fikrlash jarayonining faol, ijodiy xarakter kasb etishi; Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning fikrlashi, shu asosda faoliyat usullarini egallay olishi, ularni sharoitga mos ravishda o'zgartirishi, izlanishlar asosida o'z oldiga qo'ygan muammoni yechishga kirishishi pedagogik jarayonning ustuvor maqsadi ekanligi; aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning samarali usullaridan biri ekanligi; fikrlash faoliyati o'rganuvchi subyektning o'rganilayotgan obyekt bilan uzluksiz o'zaro harakati jarayoni sifatida baholanishi; fikrlash faoliyatining muammoli, shuningdek tobora murakkablashib boradigan masalalarni yechishda rivojlanish xarakteriga ega ekanligi; bir tizimga birlashtirilgan turli

xarakterdagi harakatlanish usullari, ya'ni yagona tahliliy-muhokamaviy faoliyat boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning fikrlash layoqatini samarali rivojlantirishi; o'qituvchining pedagogik qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish omili ekanligi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasi**" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning metodik imkoniyatlari, ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish texnologiyalari hamda ona tili darslarida morfologiya va sintaksisga doir topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish xususida fikrlar bayon qilingan.

O'quvchilarda ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodik jarayon bo'lib, bunday malakalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilarda evristik qobiliyatini rivojlantirishda og'zaki mashqlar muhim o'rin egallaydi. Bunda og'zaki mashqlarning umumdidaktik jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchi navbatda ularning didaktik tasnifini o'rganish talab etiladi. Metodik adabiyotlarda ta'lim metodlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Axborotlarni taqdim etish manbalari hamda ularni o'quvchilar tomonidan "idrok etilish" xarakteriga asoslanadigan ta'lim metodlari. Bunga og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar kiradi.

2. Bilimlarni egallash tizimiga ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, ijodiy faoliyat ko'rsatish kabilar kiradi.

3. O'quvchilarning bilish darajalarini aniqlashga asoslangan metodlar illyustratsiyali tushuntirish, reproduktiv, muammoli bayon etish, evristik va tadqiqotchilik kabilar tashkil etadi.

Evristik metod – o'quvchilarda topqirlik, faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish metodi. Evristik metod yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkurni rivojlantiradi.

Evristik metodning mohiyati shundaki, o'qituvchi o'quvchilarni muayyan dalillarni tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ushbu metod yordamida shunday og'zaki mashqlarni loyihalashtiradiki, unda mashqlarni qismlarga ajratish va yechimni izlash usullariga ishora qiladi, lekin barcha amallarni o'quvchining o'zi bajaradi. Bunday og'zaki mashqlarni bajarish orqali o'quvchi dalillar bilan tanishishga, tushuncha va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Evristik metodlardan bir nechtasi bilan tanishamiz.

1. "Ramziy akslantirish" metodi. Ushbu metodda obyekt o'quvchilar tomonidan hissiy-ramziy nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Tanlangan obyekt va uning ramzi orasidagi bog'lanishlar izlanadi, obyektning grafik, belgili, so'zlar orqali biror ko'rinishda ramzini yaratish talab etilib, eng asosiysi, bu ramzni talqin etish, asoslab berish hisoblanadi. Metodning maqsadi o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan ma'lumotlarni umumlashtira olish, ularni rasm, chizma ko'rinishida


ifodalay olishga o'rgatish, tahliliy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik, tasavvurni shakllantirishdan iborat.

2. "Evristik savollar" metodi. Bu metodda tanlangan hodisa yoki obyekt to'g'risida ma'lumot to'plash maqsadida 7 ta tayanch so'roq so'zlari asosida savollar tuzish talab etiladi. "Kim?" "Nima?" "Qayerda?" "Qachon?" "Qanday?" "Qay tarzda?" "Nima uchun?" so'roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi "Qachon va qay tarzda?" "Kim va qachon?", "Kim va nima uchun?" kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori baholanadi. Maqsad – o'rganilayotgan obyektning mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borish, o'quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash malakasini oshirishdan iborat.


3. "Obrazli akslantirish" metodida obyekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. O'quvchi tanlangan obyektning tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o'z tasavvuridagi matnli yoki grafik ko'rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayoloti va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Masalan, Vatan haqidagi she'rlarga mos, uning mazmunini grafika, ovoz, animatsiyalar yordamida yoritib beruvchi animatsion rolik tayyorlash vazifasini qo'yish mumkin.

Ta'lim metodlari tizimida og'zaki mashqlarning o'rnini aniqlar ekanmiz, ikkita tasnifga asoslandik: 1) Bilim manbalariga ko'ra qo'llaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar. 2) Faoliyat xarakteriga ko'ra qo'llaniladigan metodlar: ilustratsiyali tushuntirish, reproduktiv, evristik, muammoli ifodalash, tadqiqotchilik usullaridan foydalangan holda o'quvchilarga taqdim etish.

Tanlangan matnlar bilan samarali ishlash uchun topshiriqlar tizimli va maqsadli tuzilgan bo'lishi lozim. Bu jarayonda ishtirok etadigan topshiriqlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:



2-rasm. Evristik qobiliyatni rivojlantiruvchi topshiriqning xususiyatlari



3-rasm. Ona tili darslarda o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning integrativ modeli

“Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov maqsadi, vositalari, usullari va respondentlar erishgan natijalar hamda pedagogik tajriba-sinov natijalarining matematik statistik tahlili xususida fikr yuritilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2021-2024-yillar davomida olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlardan 412 nafari Surxondaryo viloyatidagi maktablarda, 371 nafari Xorazm viloyatidagi maktablarda, shuningdek, 393 nafari Farg‘ona viloyatidagi maktablarda tahsil olishadi. Shuningdek, 44 ta guruhda (sinfda) taxsil oluvchi 1176 nafar respondentning 590 nafarini (22 ta sinf) tajriba guruhi o‘quvchilari, 586 nafarini (22 ta sinf) esa nazorat guruhi o‘quvchilari tashkil etadi.


Umumiy natijalar 1-jadvalga jamlab olindi. Bu yerda Surxondaryo, Xorazm hamda Farg‘ona viloyatlaridagi maktablarda tahsil oluvchi o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy natijalari umumlashtirilgan holda tasvirlangan.

1-jadval


Respondent o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy natijalari

№	SINF	Guruhlar	O‘quvchi soni	Mezonlar							
				5 ball		4 ball		3 ball		2 ball	
				DN	YN	DN	YN	DN	YN	DN	YN
1.	2-sinf	Tajriba	198	38	57	54	91	58	46	48	4
		Nazorat	194	39	40	51	52	55	54	49	48
2.	3-sinf	Tajriba	195	30	51	49	88	62	45	54	11
		Nazorat	193	34	39	43	43	58	56	58	55
3.	4-sinf	Tajriba	197	35	59	51	89	71	41	40	8
		Nazorat	199	34	35	52	53	72	71	41	40
Umumiy natija		Tajriba	590	103	167	154	268	191	132	142	23
		Nazorat	586	107	114	146	148	185	181	148	143

1-jadvalda keltirilgan dastlabki hamda yakuniy natijalar 4-rasmda miqdoriy jihatdan, 5-rasmda nisbiy jihatdan taqqoslangan.



4-rasm. O‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda Etnopedagogikadan foydalanish metodikasining rivojlanganlik darajalari.



5-rasm. O‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasining rivojlanganlik darajalarini nisbiy solishtirish.

Yakuniy tajriba-sinov jarayonida olingan umumiy natijalar:

Umumiy natijalarga asosan yakuniy tajriba-sinov jarayonida 11,65% samaradorlikka erishildi.

Biz aniqlagan empirik qiymat Student-Fisher mezonining 95% ehtimollikdagi kritik qiymatidan katta ekan:

$$t_{t,n} = 10,6 > 1,96 = t_{kr}.$$

Biz erishgan $t_{t,n}$ empirik qiymat t_{kr} kritik qiymatdan katta, bu esa H_1 gipotezaning rostligini bildiradi.

Tajriba va nazorat guruhlarining noma'lum o'rta qiymati uchun, ishonch oralig'i, $a_x \in [3,928; 4,035]$ hamda $a_y \in [3,307; 3,488]$.

Faoliyat samardorligini baholash mezon:

$$K_{fsm} = \frac{(\bar{X} - \Delta_t)}{(\bar{Y} - \Delta_n)} = \frac{(3,98 - 0,0534)}{(3,39 - 0,0904)} = 1,1877.$$

O'quvchilarning faoliyat samardorligi uchun ijobiy xulosa berish mumkin, chunki natija 1,1877 ni ko'rsatmoqda. Kompetentlik darajasini baholash mezon:

O'quvchilarning faoliyat samardorligi uchun ijobiy xulosa berish mumkin, chunki natija 1,1877 ni ko'rsatmoqda. Kompetentlik darajasini baholash mezon

$K_{fsm} > 1$, $K_{bdbm} > 0$ bo'lganligi uchun, o'quvchilarning sifat ko'rsatkichlari hamda bilish ko'lam talab darajasida degan xulosaga kelamiz.

Demak, tajriba guruhidagi o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, faoliyat samardorligi va bilish darajasi nazorat guruhiga nisbatan afzalliroq ekan.

Bu esa tadqiqotimiz orqali ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning pedagogik nuqtai nazardan ishonchliligini hamda statistik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan ijobiy natijalarga olib kelganligini tasdiqlaydi.

Aniqlangan o'zlashtirish samardorligi 11,65%, boshlang'ich sinf o'quvchilarining evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasining takomillashtirilganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishida qo'yilgan maqsadga binoan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir metodik tafsiyalar amaliyotga joriy qilinganda 11,65% samara berdi. Shuningdek, olingan natijalar sinflar kesimida tahlil qilinib, 2-sinf o'quvchilarida 11,64%, 3-sinf o'quvchilarida 11,52% hamda 4-sinf o'quvchilarida 11,87% samardorlikka erishildi.

XULOSALAR

1. Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish asnosida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi, o'quv materiali va o'quvchi faoliyatining samardorligini ta'minlash nazariy jihatdan asoslab berildi.

2. Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish ta'limni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish, subyetlar faoliyatini psixologik, pedagogik, metodik jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Evristik ta'lim orqali yoshlarga bilim berish sifatini yaxshilash maqsadida ona tili ta'limini loyihalashtirish konsepsiyasi taklif qilindi. Ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish jarayon sifatida loyihalash faoliyati, vositasi, predmetidan iboratligi asoslab berildi.

Bunda loyihalash faoliyati — o‘quv materialini didaktik va metodik jihatdan tahlil qilish asosida loyihalashga yo‘nalgan faoliyat, loyihalash vositasi — ta‘limni loyihalash va uni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy va nomoddiy vositalar majmui sifatida ajratildi.

4. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishda umumiy didaktik prinsiplar bilan bir qatorda, ijodiy ta‘limning o‘ziga xos prinsiplariga amal qilish lozimligi isbotlandi va bunday prinsiplar majmui takomillashtirildi.

5. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishda ikki toifa – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati tahlil qilinib, ularning mazmuni metodik jihatdan asoslab berildi.

6. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish izchillik, uzviylikni ta‘minlash, o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishga mas‘uliyat bilan yondashishni taqozo etadi.

7. O‘qituvchilar darslikdagi o‘quv materiallari ustida ishlashda ona tilidan nazariy ma‘lumotlarni tushuntirishga zo‘r berishlari tufayli, bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yilayotganligi, mashq matnlarining badiiy jihatdan nisbatan sayozligi, leksik tahlilga doir qo‘shimcha materiallarga, lug‘at ustida ishlashga e‘tiborsizlik boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tilning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmasligiga sabab bo‘lmoqda.

8. Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta‘limidagi an‘anaviy o‘qitish usullari tilni nazariy o‘rgatishga yo‘naltirilganligi, til materiallarining grammatik va orfografik jihatdan o‘qituvchilar yordamida tahlil qilinishi, ona tilining leksik qatlami darslikka kiritilgan mashqlar shartiga ko‘ra tahlil qilish bilan cheklanilganligi o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

9. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish asosida og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish o‘quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkoniyat yaratibgina qolmay, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Tavsiyalar

1. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari (qulaylik, vizuallik, amaliy yo‘nalganlik)dan samarali foydalanib, ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan metodik qo‘llanmalar, videodarslar ishlab chiqish.

2. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish metodikasini takomillashtirish metodikasini “Ramziy akslantirish”, “Evristik savollar”, “Obrazli akslantirish” va “Loyihalash” kabi o‘qitish metodlarini o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikalariga integrativ singdirish.

3. Ona tili darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanishning didaktik va metodik talablarini amalga oshirishning maqsadi, mazmuni, natija komponentlarini qamrab olgan takomillashtirilgan integrativ model asosida o‘qitishni ommalashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУРРАМОВ РУСТАМ САЙФИДДИНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ЭТНОПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ЭВРИСТИЧЕСКИХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (узбекский язык)
(педагогические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за (№B2024.3.PhD/Ped3209).

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Научного совета (www.terdu.uz) и на Информационном образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Хамроев Алижон Рузикулович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Кулдошев Рустамбек Авезмуродович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Хамроев Гофир Хасанович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в «_____» часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 при Термезском государственном университете. (Адрес: 190111, город Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: +99876221-74-55; факс: +99876221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета. (зарегистрирована за №_____). (Адрес: (Адрес: 190111, город Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: +99876221-74-55.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2024 года.
(Протокол реестра рассылки №_____ от «_____» _____ 2024 года).

М.Х.Шомирзаев

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

А.Б.Нарбаев,

Секретарь Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.ф.п.н.,(PhD), доцент

У.Б.Абдиев,

Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.п.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое значение имеет изучение языков и культур, а также включение культурного разнообразия этнических групп в систему образования и развитие эвристических способностей учащихся. Программа “Culturally Responsive Teaching”³ США направлена на улучшение методологии обучения учащихся с учетом их культурного происхождения и развитие их эвристических способностей и направлена на использование и развитие элементов этнопедагогике в многонациональных странах. С этой целью важное значение приобретает вопрос развития умения использовать этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка.

Во всем мире ведутся научно-исследовательские работы по использованию различных методик развития эвристических способностей учащихся, изучению педагогических и психологических условий, разработке системы прагматических учебных заданий по языковому обучению и их использованию в процессе урока, созданию учебной литературы по этнопедагогике на основе современных требований. Эти исследовательские работы вызывают необходимость системной работы по совершенствованию методики использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка.

В нашей стране также ведется системная работа по повышению престижа узбекского языка как государственного родного, внедрению новых современных методик обучения. Новая политика в отношении языка, сформировавшаяся в республике, предъявляет необходимые требования к языковому образованию. То что “каждый из нас должен рассматривать внимание к государственному языку как внимание к Независимости, а уважение и преданность государственному языку как уважение и преданность родной стране, принимать такой взгляд правилом нашей жизни”⁴ ставит актуальные задачи и перед обучением родному языку, в частности, совершенствованием научно-методических основ подготовки учителей.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5712 “Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 29 апреля 2019 года, №УП-5850 “О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного” от 21 октября 2019 года, №УП-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране” от 20 октября 2020 года, Постановлений №ПКМ-419 Кабинета Министров Республики Узбекистан “О Департаменте по вопросам духовности и развития государственного языка” от 5 июля 2021 года, №ПКМ-139 О мерах по дальнейшему повышению эффективности фундаментальных и прикладных исследований по узбекскому языку и литературе” от 11 марта 2020 года, а также в других нормативно-правовых документов относительно данной

³Gay, G. Culturally responsive teaching: Theory, research, and practice (2nd ed.). Teachers College Press. (2010).

⁴uz.uz. Выступление Президента Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной тридцатилетию присвоения узбекскому языку статуса государственного. 21 октября 2019 года.

сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информатизированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В последние годы в нашей стране проводится ряд научно-методических исследований по методике преподавания родного языка. В частности, в исследованиях Ш.Юсуповой и Н.Юлдашевой были исследованы вопросы обучения родному языку на основе новых педагогических технологий. А.Гулямов, М.Саидов и Н.Аловуддинова проводили исследования по методике формирования навыков самостоятельной работы, творческого мышления через обучение родному языку. Такие исследователи как А.Бобомуродова, Т.Зиядова, Т.Т.Ганиев, М.Саидов А.Хамроев, К.Мавлонова исследовали возможности увеличения словарного запаса учащихся в процессе обучения родному языку, вопросы повышения познавательной активности учащихся в процессе выполнения упражнений по родному языку, развивающих мышление учебных заданий и методики их использования в процессе обучения родному языку. Исследование Х.Суюнова о методах обучения работе над вопросами и заданиями в преподавании литературы имеет важное значение для литературного образования, а также для образования на родном языке.

В исследованиях ученых стран Содружества Независимых Государств, таких как Н.М.Махмутов, Т.И.Шамова, А.П.Занков, М.Н.Скаткин, А.М.Новиков, П.П.Блонский, Н.Д.Никандров, И.Ю.Лернер, А.П.Ершова и других исследованы проблемы развития коммуникативной культуры будущих учителей на основе проективного обучения.

Зарубежные ученые: М.А.Аmutio, А.Smith, А.Yelanda, F.F.Bahamonde, R.R.Sears, R.O.Descartes провели исследовательскую работу по задачам развития мышления и методике их использования в процессе обучения родному языку.

Хотя учеными отрасли были проведены различные исследования педагогических и методических аспектов исследуемой проблемы, вопрос о совершенствовании методики использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка исследован не в достаточной мере.

Связь исследования с планами научно-исследовательской работы высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках проекта «Механизмы развития творческих способностей учащихся в процессе обучения в начальном образовании» (2022-2025 гг) плана научно-исследовательской работы Термезского государственного университета

Цель исследования состоит в совершенствовании методики использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка.

Задачи исследования:

выявление теоретико - методических возможностей использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка;

содержательное совершенствование методики обучения на основе закономерностей развития эвристической способности учащихся в использовании этнопедагогике на уроках родного языка;

совершенствование интегративной модели использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся посредством использования целенаправленных вопросов и упражнений на уроках родного языка;

разработка рекомендаций по выявлению и внедрению в практику уровня эффективности методики, направленной на использование этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка.

В качестве **объекта исследования** был выбран процесс совершенствования методики использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка, в котором приняли участие 1176 учащихся 9 общеобразовательных школ Сурхандарьинской, Ферганской, Хорезмской областей.

Предмет исследования составляют формы, средства, методы, приемы использования этнопедагогике в развитии эвристических способностей учащихся на уроках родного языка.

